ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA RUHIYAT TASVIRIDA TUN VA TONG DIALEKTIKASINING BADIIY AHAMIYATI

Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi
TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida tun va tong motivlarining inson ruhiyatiga ta'siri badiiy-estetik hamda psixologik jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida tun va tong obrazlarining lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari, hissiy holati va badiiy tafakkur bilan o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu motivlarning ramziy-falsafiy mohiyati, ularning ezgulik va yovuzlik, umid va umidsizlik, zulmat va yorug'lik kabi qarama-qarshi tushunchalar bilan aloqadorligi ochib beriladi. Maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yetuk vakillari ijodidan namunalar asosida tun va tong tasvirining ruhiyat ifodasidagi badiiy vazifasi yoritilib, ichki monolog, ramz, metafora, rang tasviri kabi badiiy vositalarning qo'llanish xususiyatlari ilmiy asosda izohlanadi. Tadqiqot natijasida tun va tong motivlari nafaqat tabiat hodisasi, balki inson qalbining murakkab ruhiy holatini aks ettiruvchi poetik konsept sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Zamonaviy o'zbek she'riyati, tun motivi, tong motivi, ruhiyat tasviri, lirik qahramon, badiiy obraz, ramz, metafora, ichki monolog, poetik tafakkur, psixologizm, badiiy talqin, rang tasviri, falsafiy motiv, poetik konsept.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida tun va tong tasvirini inson ruhiyatiga ta'sirini o'rganish ham ilmiy nuqtayi nazardan yondashishning asosiy omillaridan biri hisoblanmoqda. Sababi, badiiy adabiyotda shaxs ruhiyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini anglash shoir va yozuvchilarning asosiy maqsadlariga aylanmog'i lozim. Ruhiyat tasviri deganda, avvalo, har bir insonning tasavvurida ko'zilg'amas,

faqatgina qalb orqali anglash mumkin bo‘lgan yashirin jarayon gavdalanadi. Bu esa ruhiyatni anglash uchun har bir shaxsning individual fikri lozimligi psixologik talablardan biri sanaladi. Shaxs ruhiyatini ilmiy jihatdan o‘rganish turli sohalar doirasida amalga oshirilsa-da, biroq adabiyot bu sohaning o‘rganilishida yetakchi hisoblanadi. Ta’riflarga binoan, adabiyot ruhiyat fani, insonshunoslik fanidir. “Umidbaxsh tamoyillar” asari muallifi Umarali Normatov tomonidan ta’kidlanganidek, “Inson va uning tabiati, qalbi, ruhiyati haqiqatini kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi, uning o‘rnini bosolmaydi”.

Har bir inson ruhiyati xilma-xil, birgina ta’rif ayrim hollarda uni oddiygina yo‘sinda ochiqlay olsa, ba’zan uning qanday holatda ekanligini anglashni so‘z bilan amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu ijodkorlardan bor mahoratlarini ishga solishni, ruhiyatning qanday maqomda ekanligini anglashlarini talab qiladi. Shoir va yozuvchilar yaratgan asarlar ayrim ruhiyat vakillariga birdaniga mos tushsa, ba’zan bundan mosuvo holatlar ham sodir bo‘ladi. Ijoddagi turlichaliklar ruhiyatdagi xilma-xilliklarga mos keladi deya bemalol ayta olamiz. Dissertatsiyamizning ushbu rejasida zamonaviy o‘zbek she’riyatida bevosita tun va tong talqinining inson ruhiyatiga aloqadorligini tahlil qilar ekanmiz, avvalo, she’r namunalarida mavjud ruhiyat tasviri yo‘sini, uning g‘oyaviy-funksional vazifasi, lirik qahramon va ruhiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, ijod namunalaridagi ruhiy ifoda kabi omillarning badiiy yo‘sinini tadqiq etish, ruhiyatga daxldor ijodkor ifoda yo‘sininini badiiy jihatdan ochiqlash, qaysi badiiy tasviriy vositalar ruhiyatni aks ettirishda qo‘llanishi xususida tadqiq manbasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Badiiy adabiyotda ruhiyat talqinini amalga oshirish orqali shaxs olamiga xos his-tuyg‘ularni, uning xayollarini, orzu-o‘ylarini, umid va niyatlari ro‘yobini anglash mumkin. Badiiy adabiyotda ruhiyatni kashf etish, albatta, har bir

ijodkorning chekiga tushadi. Sababi, ruhiyat bu yirik olam, ulkan ummon, cheksizlik va sirlilik olamidir. Rus olimi V.G.Belinskiy ta'kidlaganidek, "Ehtiroslar va ziddiyatlar bo'lmasa, hayot ham, poeziya ham bo'lmaydi". Zero, olamdagi hissiyotlar hamda ziddiyatlar dunyosi ruhiy hayotning ajralmas qismi sanaladi. Ruhiyatni to'laqonli ochib bera olish uchun ijodkor inson psixik holatidan ham boxabar bo'lishi maqsadga muvofiq. Gegel o'zining "Estetika" asarida shunday deydi: "She'riyatga tegishli bo'lgach borliq ruhning cheksiz olamidir. Zero, so'z ruhga bevosita tegishli bo'lgan va uning manfaati hamda ichki to'lqinlanishlarini ifoda eta oladigan qulay materialdir". She'riy janrlarda ruhiyat tasviri bir necha omillar asosida shakllanadi, jumladan, badiiy obrazlar, adabiy vositalar, shoirning badiiy mahorati kabi unsurlar ruhiyat tasvirini badiiy olamga olib kirishda muhim jihatlar sanaladi.

O'zbek zamonaviy lirik asarlarida tun va tong motivlari ijodkor tomonidan yetkazib berilayotgan mazmunning badiiy g'oyasini ochishga yordam beradi. Tun va tong dialektikasi yaxlitlik hosil qilgan holda she'rlarda namoyon bo'lishi ularning yangicha ma'no kasb etishiga sabab bo'ladi. Hayotiylik sikli tufayli tundan so'ng tong otishi lirik makonda qahramonlarning ruhiyatida ham aks etib, tundagi hislar tong vaqtida butunlay boshqasiga almashish holatlari she'riy asarlarda o'z bayonini topadi: umidsizlik umidvorlikka, yomonlik yaxshilikka, yovuzlik ezgulikka almashib, ularda ham "hayotiylik sikli" hosil bo'ladi. Tun ham ba'zi shoirlar ijodida ilhom vaqti, yor vasliga intiq bo'lish kabi ezgu hislarni ham ifoda etgan o'rinlar mavjud. Shu sababli ham tun motivi tong motiviga nisbatan kengroq ma'nolar qamroviga ega deya bemalol aytish mumkin. Tun talqiniga oid ushbu ma'nolar, asosan, mumtoz asar namunalariga xos bo'lib, davrlar o'tishi bilan adabiy syujetlarning "sayyor" ko'chishi, falsafiy mohiyatning asar tarkibiga

mazmunan singdirilishi va shu kabi qator omillar sababli tun va tong dialektikasi o'ziga yangicha ma'no qirralarini kashf eta boshladi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida tun va tong obrazlari yangicha mazmun, yangicha ma'no ifodalarini aks ettirish bilan ifoda etajak yangi badiiy g'oya va maqsadlarga asoslana boshladi. Lirik janrlardagi tun va tong dialektik birliklarining zamonaviy she'riyatdagi ramziy ma'nosi davr ruhini mujassam etish bilan birgalikda mumtoz adabiy namunalarga xos ma'noni ham birlashtirish xususiyatini hayotiy voqeliklar bilan birgalikda talqin etish "urfga kirdi". Insoniyat yaratilgandan beri tabiiy hodisotlar sifatida u bilan yonma-yon yashab kelayotgan tun va tong badiiy adabiyotda ramziy ma'no tashuvchi timsollar sifatida yangicha mohiyatga ega bo'ldi. Tun zulmatining qaroligi kishi ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi omil sifatida baholansa, undan so'ng, albatta, tong otishi yaxshilik kelishidan umidvorlik tarzida lirik asarlarda yangi mavzu sifatida kirib keldi.

Avvalgi davr she'riyat ilmida diniy-tasavvufiy talqin shoirlar tomonidan ilgari surilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuv Yevropa adabiyoti ta'sirida tun va tong motivlarining yangicha mazmun kashf etishiga imkon tug'dirdi.

Demak, o'zbek she'riyatida mavzu jihatidan ham siljish ro'y berdi, mavzular qamrovi kengayib, siyosiy-ijtimoiy, madaniy, falsafiy ifodalar zamonaviy o'zbek she'riyatiga kirib keldi. Ijodkorlar davr muhitiga monand she'riy asarlar bitib, ularda ulug'vorlik, ezgulik ruhi ustuvorlik kasb eta boshladi. Tun va tong dialektikasining ilmning turli sohalarida o'rganilishi ham ulardagi yangi mazmunning ochiqlanishiga xizmat qildi. O'zbek lirikasidagi ba'zi shoirlar ulardan ramziy timsollar sifatida foydalanishsa, boshqa shoirlar ijodida tun va tong motiviga to'g'ridan to'g'ri murojaat shakllari yuzaga kela boshladi - ijodkorning ushbu badiiy ifodalarga qay tomondan yondashishi u tomonidan yaratgan asarida

qaysi ma'no ilgari surilishi bilan mohiyatan daxldorlik hosil qildi. Ushbu uyg'unlashuv orqali shoirning badiiy g'oyasi adabiy mafkuraga monand tarzda ifoda yo'sinini hosil qildi.

Zamonaviy o'zbek she'riyati tun va tong tasvirini badiiy adabiyotda aks ettirishga turlicha yondashuvlarda ikki xil yo'singa duch kelamiz:

1. Individual yondashuv.

2. Umumiy yondashuv.

Individual yondashuv asosidagi asarlarda tun va tong talqinida, asosan, inson hislariga urg'u beriladi. Har bir alohida olingan lirik qahramon ruhiyatida ularning qay darajada ta'sir etishi holati shoir tomonidan baholanib, lirik asarga singdirib yuboriladi. Ikkinchi turda esa asar mazmuniga yondashuv umumiylik kasb etadi - shoir umumga xos badiiy g'oyalarini o'z asariga olib kiradi, ularning mohiyatini badiiy yo'sinda ochib beradi.

Tun va tong obrazi lirik asarlarda aks ettirilar ekan, undagi diniy masalalar bevosita ijtimoiy mavzular doirasiga almasha bordi. Lirik obraz tasviri tun va tong dialektikasi orqali aks ettirilar ekan, lirik makonda o'z shaxsiyatiga xos xususiyatlarni badiiy yo'sinda ochib bera olish shoirlarning asosiy maqsadiga aylandi. Tun va tong motivlari uni amalga oshirishda asosiy vosita sifatida badiiy maydondan o'rin egalladi.

Tun va tong ifodalarini badiiy adabiyotda talqin etish nafaqat ushbu birliklar, balki unga yondosh ranglar hamda unga bog'liq tushunchalar asosida yanada keng qamrovga ega bo'ldi, jumladan, *zulmat, qorong'ulik, vahima, sokinlik* kabi tushunchalar tunga nisbatan olingan birliklar sifatida namoyon bo'lsa, *shafaq, quyosh, oq, nur* kabi ifodalar tong motivini tasvirlashda, asosan, keng foydalanildi. Bu kabi elementlarning tun va tong tasviriga nisbatan ishlatilishi ularning o'z

xususiyatlari bilan birgalikda she'riy asar mazmunining yanada ta'sirchan bo'lishiga xizmat qildi.

Tun tasvirini qalamga olish – shoirlar uchun mushkul vazifa. Sababi, uning og'ushida ezgulik ham, yovuzlik ham yashirin. Tunga qarama-qarshi ravishda tong ezgulik manbai sifatida birlamchi ma'no kasb etadi. Ushbu lirik mazmun kasb etuvchi falsafiy birliklar she'riyat ilmida badiiy g'oyaning yanada boyishiga xizmat qiladi. Kecha tasvirining "qora" rang asosida berilishi undagi yovuzlik mazmuni kuchliroq ekanligi bilan belgilansa, boshqa vositalar, jumladan, oy, yulduz va shu kabi tunga aloqador birliklar asosida unda ezgulik g'oyasi ilgari surilayotganligi ma'lum bo'ladi.

Bundan tashqari, tun va tong uchun xoslangan ma'noning diniy e'tiqod bilan bog'lanishi ham lirik qahramonning ruhiy olamida yana bir mazmun kasb etishidan dalolat beradi. Alloh taboraka va taoloning vasliga yetishish umidida iltijo qilish, unga ibodat qilish uchun ham kecha hamda tong fursatlarining tanlanishi zamonaviy o'zbek she'riyatiga xos talqin sifatida gavdalana boshlab, mumtoz adabiyotga xos badiiy yo'sin zamonaviy o'zbek lirikasi uchun ham "sayyor syujet" vazifasini ado etdi.

Kecha va tongga oid birliklar xususida qanday tasavvurga egalik har bir insonning tafakkuriga bog'liq jarayon hisoblanib, ular haqidagi fikrlar shaxsning assotsiativ fikrlashiga bevosita aloqador holda yuzaga keladi. Kimgadir tun deganda uning tasavvur olamida yulduz, oy, yulduz uchishi, yolg'izlik, hissiyot kabi tushunchalar anglashilsa, kim uchundir esa tong yoqimli havo, sokinlik, beg'ubor tabiat kabi fikrlar tafakkur mahsuli sifatida vujudga keladi. Anglashiladiki, tun va tong hayotiy sikl sifatida ketma-ket almashinishi ularning

lirik asarlarda parallel ravishda qo'llanib, badiiy asarda ilgari surilajak g'oyalarning aks etish maydoni yanglig' o'z talqiniga ega bo'ladi.

Badiiy asarlarda tun va tong talqinining adabiy jihatdan uyg'unlashuvi matnda aks etgan g'oyaning ifodaviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan sanalgan ijodkorlar, xususan, Shoqmonqul Salom, Usmon Azim, Jontemir Jondor, Iqbol Mirzo kabi shoirlar ijod namunalarida ko'zga tashlanuvchi tun va tong talqinlari shoirlarning haqiqiy hayotga bo'lgan yorqin qarashlari asosiga qurilgan. Ijtimoiy davr talqinlari, badiiy pafos, milliy ruh, o'lmas qadriyatlarning go'zal tarannumi shoirlar ijod namunalarida tun va tong talqinlari o'laroq zamonaviy o'zbek she'riyati maydoniga kirib keldi. Nomlari sanalgan shoirlar yuqorida sanalgan g'oya va maqsadlar bilan cheklanib qolmasdan, tun va tong ramziy ifodalari asosida lirik obrazlar yarata boshladilar. Buning natijasida esa haqiqiy shoirona mushohadaga asoslangan, badiiy pafosni o'ziga singdirgan qahramonlar adabiyot maydonidan o'rin egalladi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida qalamga olingan lirik qahramon tun vaqtida turli hislar, kechinmalar girdobida tasvirlansa, tongning kirib kelishi zulmatning parcha-parcha bo'lishiga zamin yaratib, ularning o'ziga xos talqiniga keng yo'l ochib bera boshladi. Qahramon ko'nglidagi hissiyotlar jilovsiz bo'lib, ular qorong'ulik va yorug'lik, tun va tong kabi ziddiyatlararo muallaq qolib, o'z hislarini boshqarishga ojiz qoladi. Biroq shunda shoir o'z "qalam"i ila ziddiyatlarda qolgan obrazni tongga olib chiqib, uning o'z hislarini tartiblashiga imkon yaratadi. Qora rangi orqali namoyon bo'lgan tun va oq rang ifodasidan tashkil topgan tong obrazi bevosita rangin uyg'unlashuvga poydevor yaratadi. Tun va tong dialektikasi hamda oq va qora ranglar o'rtasidagi uyg'unlik ijodkor

tomonidan ilgari surilgan badiiy g'oyaning kontekst asosida yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday ijtimoiy muhit kishi ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Buni e'tiborga olgan holda ijodkorlar ijtimoiy davr holatini badiiy maqsad ila uyg'unlashtirishga harakat qilganlar. Natijada tun va tong tasviriga oid birliklar turli uslubiy vositalar asosida yuzaga kelgan, xususan, ranglar, turli tasviriy vositalar badiiy asar tiliga xos uslubiyatni ochiqlashga xizmat qilgan. Tun, tong birliklarining yuqorida qayd etilgan ifoda vositalari asosida shakllantirilishi ulardagi g'oyaviy-badiiy maqsadning to'la-to'kis namoyon bo'lishiga yordam bergan. Lirik matnlardan o'rin olgan tun va tong motivi badiiy unsurlar, tun va tong tasviriga mos keluvchi, uyg'un ranglar orqali lirik qahramonning ruhiy holatini ochib berishda asosiy vosita sifatida foydalaniladi. Jumladan, qora rangi tunga xos ramziy timsol sifatida she'riy asarlarda namoyon bo'ladi, oq rang, nur, ziyo kabi xilma-xil shakllar esa tong tasviriga xos vosita o'laroq yuzaga keladi. Masalan:

Miltiragan minglab zabarjad
Nur quyadi kenglikka — soqiy.
Shudring tutgan maysalar, ajab,
Tuyuladi hatto ilohiy.

(Jontemir Jondor)

Misra mazmuniga e'tibor bersak, tong tasviri to'g'ridan to'g'ri aks ettirilgan bo'lmasa-da, biroq unga xos holatlar shoir qalami ila tarannum etilgan. Minglab zabarjad(qimmatbaho tosh)ga qiyos etilgan nurning soqiy tomonidan kenglikka quyilishi quyosh nurlarining tong vaqtida atrof-muhitga taralashiga muqoyasa

etilmoqda. Hattoki maysalarga qo'ngan shudringlar ham shoir uchun ilohiy tuyulgani misralarda o'z aksini topgan.

Tun tasviriga oid ifodalarda ham kishi ruhiyati bilan bog'liq holatlar ko'zga tashlanadi:

... Bugun bobom yo'q.
Ishkom osti — so'rida yolg'iz yotibman, qo'llarim bolish.
Shiralangan husaynilar o'pmish ko'zimdan.
Yulduzlar yaltirar qop-qora osmon joynomoziga
sochilgan fosforli tasbeh donalaridek.
Xayolan o'giraman ularni:
subhanolloh, subhanolloh.
Ohista tebranar lablarim misol
supa bo'yidagi gultojixo'roz...
(Jontemir, hovli)

Yuqoridagi satrlarda keltirilgan birgina misra she'rda qalamga olingan tasvirning tun vaqtida sodir bo'lganligidan dalolat beradi: *yulduzlar yaltirar qop-qora osmon joynamoziga sochilgan fosforli tasbeh donalaridek* – misra orqali anglashimiz mumkinki, ijodkor bolalik ruhiyatiga xos talqinni satrlarga olib kirishga, uni kitobxonga anglatishga uringan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek she’riyatida tun va tong motivlari inson ruhiyatini badiiy jihatdan ochib beruvchi muhim poetik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu motivlar orqali shoirlar inson qalbidagi ichki kechinmalar, iztiroblar, umid, qo‘rquv, yolg‘izlik, ishonch va ezgulik kabi murakkab ruhiy holatlarni tasvirlashga muvaffaq bo‘lganlar. Tun obrazi ko‘proq iztirob, sukut, yolg‘izlik va ruhiy ziddiyatlarni ifodalasa, tong motivi yangilanish, najot, umid va ma’naviy uyg‘onish ramzi sifatida talqin etiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tun va tong dialektikasi zamonaviy o‘zbek she’riyatida nafaqat an’anaviy poetik ma’nolarni saqlab qolgan, balki yangi davr ruhiga mos ravishda falsafiy va psixologik mazmun bilan boyigan. Shoirlar ushbu motivlar yordamida lirik qahramonning ichki olamini ochib berishda metafora, ramz, rang tasviri, ichki monolog kabi badiiy vositalardan samarali foydalanganlar. Ayniqsa, qora va oq ranglar, nur va zulmat qarama-qarshiligi inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni ifodalashda muhim poetik ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, tun va tong obrazlarining diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-falsafiy hamda individual-psixologik talqinlari zamonaviy o‘zbek lirikasining badiiy-estetik imkoniyatlarini yanada kengaytirgan. Natijada ushbu motivlar inson ruhiyati, tafakkuri va hayotiy qarashlarini aks ettiruvchi ko‘p qatlamli poetik konsept darajasiga ko‘tarilganligi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001. – 256 b.
2. Vissarion Belinskiy. Tanlangan asarlar. – Moskva: Художественная литература, 1986. – 544 b.
3. Georg Wilhelm Friedrich Hegel. Estetika. 4 jildlik. 3-jild. – Moskva: Искусство, 1971. – 623 b.
4. Jontemir Jondor. Saylanma she'rlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – 180 b.
5. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 320 b.
6. Iqbol Mirzo. Yurakdagi javohirlar. – Toshkent: Sharq, 2015. – 240 b.
7. Shoqmonqul Salom. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 210 b.
8. Eshmamatovna, E. S. A GLANCE TO THE CREATIVE WORKS OF THE POET TESHA SAYDALIYEV. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 87.
9. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
10. GABRIEL GARCIANING "ATIRGULNING TIKONI" ASARI. (2025). *Ustozlar Uchun*, *85*(7), 223-225. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/10194
11. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
12. O'RTA OSIYODA NOTIQLIK SAN'ATI. (2025). *Ustozlar Uchun*, *85*(7), 39-41. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/10091

13. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
14. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
15. Sarvinoz, J. (2025). " ALKIMYOGAR" ASARIDAGI RAMZIY OBRAZLAR TAHLILI. *Global Science Review*, *3*(4), 342-344.
16. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SOZ TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34-37.
17. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
18. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
19. Komilovna M. S. Hydronims Formed by the Method of Syntactic and Transonimization //World Bulletin of Social Sciences. – T. 37. – C. 16-18.